**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI**

**BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN’ATI INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti rektori**

________________ **A.Mansurov**

**2024 yil “30” avgust**

***Ro‘yxatga olindi: № BD 60211500-1.20***

# O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARINI

# O‘RGANISH FANINING

# O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** **200 000 - San’at va gumanitar fanlar**

**Ta’lim sohasi:** **210 000 - San’at**

**Ta’lim yo’nalishi:** **60210900 - Bastakorlik san’ati**

**Toshkent – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>O'MCHO'1205</td><td>O'quv yili<br>2024-2025</td><td>Semester<br>1-2</td><td colspan="2">ECTS-Kreditlar<br>5</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili<br>O'zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">O'zbek milliy cholg'ularini o'rganish</td><td>60</td><td>90</td><td>150</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">

I. Fanning mazmuni

Bakalavriat ta'lim bosqichi uchun tuzilgan mazkur dastur - bakalavriat ta'lim yo'nalishining Estrada cholg'ulari, ixtisosligi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur davlat ta'lim standartlariga binoan san'at sohasida bakalavrlar tayyorlash o'quv rejalari asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalaniladi.

O'zbek milliy cholg'ularini o'rganish fani yakka estrada ijrochi, cholg'u o'qituvchisi sifatida mustaqil kasbiy ish faoliyat ko'rsatadigan, yuqori musiqa ijrochilik mahoratiga ega kadrlarni tayyorlash uchun muhim o'rin tutadi. Talabaning asosiy rahbari hisoblangan mutaxassis o'qituvchi uni faqat professionalgina emas, balki jamiyatning badiiy didini, ilg'or estrada musiqa san'atini ommalashtira oladigan faol madaniyat arbobini ham tayyorlaydi.

Mazkur fan yuzasidan qo'yilgan asosiy maqsad - talaba estrada cholg'u ijrochiligi, yakkaxon ijrochilik, ansambl, orkestr cholg'ulari, jahon va o'zbek estrada va djaz musiqa merosi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi lozim.

O'zbek milliy cholg'ularini o'rganish fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar -talabalar turli zamonaviy yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o'ziga xos jihatlarini to'la namoyon etishi, kompozitorlar uslubida ixtisoslashuv cholg'usi ijrochiligiga oid barcha boyliklardan foydalangan holda sozandaga sabok berish, yakka cholg'u ijrochiligiga, milliy ijrochilik uslubining ko'llay bilish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, teatr va studiyalarda, turli ijodiy kollektivlarda, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko'nikmalarini olishlari zarur.

</td></tr>
</table>

## II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I Semestr.**

**Kirish**

O'zbek milliy cholg'ularini o'rganish fanining asosiy maqsadi - estrada yo'nalishida tahsil olayotgan bastakor-kompozitor talabalarda milliy cholg'ular bilan tanishtirish, ijro uslublari, diapazonlari hamda ularda musiqa namunalarini ijro qilish uslublari bilan tanishtirish, ijogkorlik mahoratini rivojlantirish, milliy ohanglarni o'zbek milliy cholg'ularidagi ijro yo'llarini o'rgatishdir. Bu fan o'quv rejalariga muvofiq o'qish davomida 2 semestr mobaynida yakka mashg'ulotlar tarzida o'qitiladi.

Xar bir yosh sozanda ijodkorning kamolotga yetkazishda, musiqiy asarlarning g'oyaviy va badiiy tarzda chuqur o'zlashtirishi, o'z ijrochilik mahoratini va san'atini ko'p sonli tinglovchilarga to'liq yetkazib bera olishi, umumiy tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Ijrochi sozandalarni voyaga yetkazishda ijrochilik mahoratlarini oshirish bilan bir qatorda ilmiy- uslubiy, ijodiy va musiqiy pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoniga ham alohida e'tibor berishi talab etiladi.

O'quv dasturi klassik va zamonaviy kompozitorlar yaratgan turli janr va shakldagi asarlardan tuzilgan.

Repertuarni tanlab olish jarayonida xar bir talabaga alohida yondoshish zarur. Uning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, texnik imkoniyatlari xisobga olingan tarzda meyyoriy dasturni uzlashtirish ustida ish olib boriladi.

### Dastlabki tushuncha va saboqlar

### 1-mavzu: Oldin olgan bilimlarni tizimlashtirish

Hozirgi kunda mavjud musiqiy ta'lim tizimi: bolalar musiqa va san'at maktablari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktablar, musiqa kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalari ijrochi-sozandalari, mukammal bilim olishlari

### 2-mavzu: O'zbek milliy cholg'u ijrochiligi tarixi

Musiqa bu – turli tuman tovushlar yig'indisi natijasida badiiy obraz aks ettirib, g'oyaviy emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turidir.

### 3-mavzu: Ijro mahoratini oshirishda ijrochilik holatining ahamiyati

Dastlabki darslarda o'quvchiga cholg'u haqida umumiy axborot berilgandan so'ng, cholg'uda ijro holatini (postanovka), sozandaning fiziologiyasidan kelib chiqqan holda to'g'ri shakllantirish.

| | |
|---|---|
| | **4-mavzu: Chap qo'lning dastada joylashuvi**<br>Dutor cholg'usi dastasining uchi ijrochining yelkasi barobarida bo'lib, cholg'uning o'zi esa sozandaning yon tomonidan razm tashlaganda inson gavdasiga nisbatan parallel holatda joylashishi.<br><br>**5-mavzu: O'ng qo'lning dutor kosasi ustida joylashuvi**<br>Talabaning ikki yelkasi bir-biriga teng turishi, dutorni ushlashdagi tayanch nuqtalari o'quvchining qo'llari uzun bo'lsa yonroqqa, aksincha kaltaroq bo'lsa kosaxonaning yuqorirog'iga qo'yilishi.<br><br>**6-mavzu: Ijro etishda o'ng qo'l bilagi ahamiyati va vazifasi**<br>Ijro etishda o'ng qo'l bilagi sifatli tovush chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. barmoqlar torlarni chertish jarayonidagi holati asosiy omil hisoblanib, cholg'u dekasi, ya'ni qopqog'iga barmoqlarni zarb bilan chertishdir.<br><br>**7-mavzu: Dutor ijrosidagi qo'llaniladigan ramziy belgilar**<br>Ijrochi-sozanda dutorda ijro etishni o'rganishni boshlagan ilk kunlaridan boshlab, tovush hosil qilish va uni ijro madaniyatini rivojlantirishi lozim. Dutor cholg'usidagi ijro uslublari turli xil bo'lib, ularni sozanda ajrata bilishi hamda ijrosini eshitib, farqlay olishi zarurdir.<br><br>**8-mavzu: Chap qo'l barmoqlari ijro tezligi ustida ishlash**<br>Sozanda chap qo'l texnikasini rivojlantirishda bir necha omillar ta'sir qilib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq<br><br>**9-mavzu: Cholg'u asarlari va ularni o'zlashtirishga qo'yiladigan nazariy talablar**<br><br>**10-mavzu: Tovush hosil qilish va uning turlari. Ijro usullari**<br>Ijrochi-sozanda dutorda ijro etishni o'rganishni boshlagan ilk kunlaridan boshlab, tovush hosil qilish va uni ijro madaniyatini rivojlantirishi lozim. Dutor cholg'usidagi ijro uslublari turli xil bo'lib, ularni sozanda ajrata bilishi hamda ijrosini eshitib, farqlay olishi zarurdir<br><br>**11-mavzu: O'ng qo'l texnikasi**<br>O'ng qo'l texnikasi ustida ishlashni avvalam bor dutor kosaxonasi ustida tirsakning tayanch nuqtasini to'g'ri turganligi, ijro holatida barmoqlar torlarni chertishda |

| | |
|---|---|
| | cholg'uning eng yuqori pardalari ustida joylashishi, bilak va barmoqlarni erkin bo'lishini<br>**12-mavzu: Pozitsiya va applikaturalar**<br>Pozitsiya cholg'u ijrochiligidagi tushunchasi chap qo'l barmoqlarining musiqiy cholg'u dastasidagi vaziyati, ya'ni holatidir. Applikatura chap qo'l barmoqlarini to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibidir.<br><br>**13-mavzu: Gammalar ijrosining ahamiyati va dolzarbligi**<br>Ijro mahoratini oshirish, o'ng va chap qo'llarning ijrodagi mutanosibligi, pozitsiyalarni ajratish, applikaturani to'g'ri tanlashda gammalar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun birinchi bosqich talabalariga fanning ishchi o'quv dasturiga binoan 2 va 3 belgili major hamda minor gammalarni turli xil shtrixlarda ijro qilish tavsiya etiladi<br><br>**14-mavzu: Dutorda qo'llaniladigan shtrixlarni ijro uslublari**<br><br>**Yakuniy nazorat.**<br>Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:<br>1. 2 ta ixtiyoriy soda bir qisimlik asar ijro etish<br>2. va uch belgisi bo'lgan gammalarni sodda shtrixda ijro etish.<br><br>**II Semestr.**<br>**1-mavzu: Bilak zarbning ijro uslubi**<br>O'ng qo'lni yuqori yoki pastga tashlab bilak yordamida ijro etish. Bunda o'ng qo'lning barcha barmoqlari va bilak ishtirok etib, tovush o'z navbatida to'liq, jarangdor eshitilshi.<br><br>**2-mavzu: Chertma zarbning ijrodagi uslubi**<br>Bilak yordamida faqatgina ko'rsatkich barmoq yordamida ijro etish uslubi bo'lib hisoblanadi. Bu holda tabiiyki tovush bilak zarbga nisbatan pastroq, yumshoqroq chiqadi.<br>**3-mavzu: Terma zarbning ijrodagi uslubi**<br>O'ng qo'lniko'satkich va bosh barmoqlarini alohida-alohida pastga va yuqoriga ketma-ket ijro etish bilan to'rt tovushdan iborat zarb amalga oshiriladi. Terma zarbning barcha tovushlari rimt va tovush kuchi jihatdan bir maromda bo'ishi shart |

**4-mavzu: Teskari terma zarbning ijrodagi uslubi**

Ushbu uslub xarakteristikasi yuqorida aytilgan terma zarb ijro yo'liga juda o'xshash bo'lib, teskari terma zarb uchta tovush guruhidan iborat bo'lib, ijro paytida avval birinchi tovushi ko'rsatkich ("k") barmoq bilan pastga, qolgan ikki tovushi bosh va ko'rsatkich barmoqlar bilan yuqoriga ijro etiladi

**5-mavzu: Tovush balandligi (dinamika) ustida ishlash**

tovush kuchi sifatida sozandaning musiqiy asar mazmun – mohiyatini ochib berishda asosiy vositalardan biri bo'lib, tovush dinamikasi orqali musiqiy bo'yoqlar vujudga keladi, asarning ta'sir kuchi oshadi va tinglovchida musiqiy asar haqidagi to'g'ri tushunchani shakllantirishi.

**6-mavzu: O'zbekiston bastakor va kompozitorlarining xalq cholg'ulari uchun yaratgan asarlari**

**7-mavzu: Ijrodagi ko'nikmalarni takomillashtirishda etyud hamda mashqlar**

**8-mavzu: Milliy musiqa namunalarini ijro etish**

**9-mavzu: Notadan o'qish malakalarini shakllantirish**

Notadan ijro mahoratini o'stirish. Talabalarda mustaqil ravishda mashg'ulotlar olib borish ko'nikmalarini o'rgatish, ijro dasturini shakllantirishga yordam berish va o'zlashtirilgan - notalarni varoqdan ravon o'qish, nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish. Umumiy musiqiy-nazariy bilim doirasini yanada kengayish. Jamoaviy ijrochilikka xos bo'lgan 2-3 ta mashqlar, 4-5 ta har xil xarakter uslubidagi asarlarni dastlab notadan ijro etish.

**10-mavzu: Ijrochida tinglab taxlil qilish qobiliyatini shakllantirish**

**11-mavzu: Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish**

Dutorda o'ng qo'l texnikasini o'stirishda terma zarb, teskari zarb, rezlarni o'rni beqiyosdir, sababi ularning har biri o'zgacha ijro qilinadi. Ushbu zarblarda bevosita ko'rsatkich va bosh bormoqlar qatnashadi, bilak esa yordam beradi.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O‘tilgan mavzular bo‘yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1. 2 ta ixtiyoriy sodda bir qisimlik asar ijro etish
2. va uch belgisi bo‘lgan gammalarni sodda shtrixda ijro etish

## III. Yakka mashg‘ulotlar

1-mavzu: Oldin olgan bilimlarni tizimlashtirish
2-mavzu: O‘zbek milliy cholg‘u ijrochiligi tarixi
3-mavzu: Ijro mahoratini oshirishda ijrochilik holatining ahamiyati
4-mavzu: Chap qo‘lning dastada joylashuvi
5-mavzu: O‘ng qo‘lning dutor kosasi ustida joylashuvi
6-mavzu: Ijro etishda o‘ng qo‘l bilagi ahamiyati va vazifasi
7-mavzu: Dutor ijrosidagi qo‘llaniladigan ramziy belgilar
8-mavzu: Chap qo‘l barmoqlari ijro tezligi ustida ishlash
9-mavzu: Cholg‘u asarlari va ularni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan nazariy talablar
10-mavzu: Tovush hosil qilish va uning turlari. Ijro usullari
11-mavzu: O‘ng qo‘l texnikasi
12-mavzu: Pozitsiya va applikaturalar
13-mavzu: Gammalar ijrosining ahamiyati va dolzarbligi
14-mavzu: Dutorda qo‘llaniladigan shtrixlarni ijro uslublari
15-mavzu: Bilak zarbning ijro uslubi
16-mavzu: Chertma zarbning ijrodagi uslubi
17-mavzu: Terma zarbning ijrodagi uslubi
18-mavzu: Teskari terma zarbning ijrodagi uslubi
19-mavzu: Tovush balandligi (dinamika) ustida ishlash
20-mavzu: O‘zbekiston bastakor va kompozitorlarining xalq cholg‘ulari uchun yaratgan asarlari
21-mavzu: Ijrodagi ko‘nikmalarni takomillashtirishda etyud hamda mashqlar
22-mavzu: Milliy musiqa namunalarini ijro etish
23-mavzu: Notadan o‘qish malakalarini shakllantirish
24-mavzu: Ijrochida tinglab taxlil qilish qobiliyatini shakllantirish
25-mavzu: Ijrochida konsert ijrochiligi qobiliyatini shakllantirish

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Dars soatlari hajmi |
|---|---|---|
| | **1-2 semestrlar** | |
| 1. | Milliy cholg'ularda ijrochilik haqida ma'lumotlarga ega bolish | 6 |
| 2. | Ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish va shakllantirish | 12 |
| 3. | Ijrochilik mahoratini rivojlantirish | 12 |
| 4. | Musiqiy asarlarni sof ijro usullari ustida ishlash | 12 |
| 5. | Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish | 12 |
| 6. | Notadan ravon o'qish malakasi ustida ishlash | 12 |
| 7. | Ijrochilik ko'nikmalarini mukammallashtirish | 12 |
| 8. | Sahnaviy chiqish va maxsus kontsert ko'nikmalarini rivojlantirish | 12 |
| | **Jami** | **90 soat** |

## IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston bastakor va kompozitorlarining milliy cholg'ulari uchun yaratgan asarlari ijodini o'rganish.
2. Hamdo'stlik davlatlari bastakorlari va kompozitorlik ijodiyoti namunalaridan o'rganish.
3. Ustoz san'atkorlarning ijro namunalarini tinglab o'rganish.
4. Gamma va etyudlar orqali ijro texnikasini rivojlantirish.
5. Ansambl bo'lib ijro etish.

### Ijro texnikasini rivojlantirish

Alohida e'tibor professional darajani mukammallashtirishga, tovush apparatining texnik rivojiga, zamonaviy estrada va djaz stilistik yo'llarini o'zlashtirishga, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Ijro texnikasini rivojlantirish ustida talaba bilan muntazam ravishda ish olib borish darkor. Gammalar va etyudlar bu malakani egallashda alohida va zarur bo'lgan o'rinni egallaydi. Oraliq nazorat attestatsiyalarida cholg'uchi talaba albatta gammalar va etyudlarni har xil ko'rinishlarida attestatsiya komissiyasiga ko'rsatishi lozim. Boshlang'ich kurslarda 3- belgigacha bo'lgan gammalarni topshirishi lozim bo'lsa, yuqori kurslarda xar bir talaba 5-belgigacha bo'lgan belgili gammalarni xar xil ko'rinishda bemalol ijro etish.

**Zamonaviy yo‘nalishlar texnikasini egallash.**

Bugungi kun milliy cholg‘ular ijrochilik san’atkorlari davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya’ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san’at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon estrada musiqiy dasturlar, nota dasturlari, elektron-musiqa cholg‘ulari-sintezatorlarda bemalol ijod qilish texnikasidan ham xabardor bo‘lishi shart.

Estrada ijrochiligi yo‘nalishida taxsil olayatgan talabalar klassik kompozitorlarining kichik va katta janrdagi asarlari bilan bir qatorda, estrada va djaz yo‘nalishidagi asarlarni notadan va yoddan ijro etish malakalarini egallashlari shart.

## V. Yakka mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Texnik mahoratni rivojlantirish. Konsert ijrochilik amaliyotini ishlash.
Artistik mahoratni rivojlantirish. Asarni mustaqil o‘ganish. Notani tez o‘qish

**Dasturiy talablar (Xar bir semestr uchun)**

O‘zbek xalq kyulari, bastakor asarlari, Shashmaqom mushkilot bo‘limidagi soda asarlar. Ikkita etyud.

**Ijrochilik mahoratini rivojlantirish.**

Ijrochilik mahoratini rivojlantirish ustida ishlash. Cholg‘uda tovushni yanada tiniq, ravshan ijrosi ustida ishlash. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish. Akademik konsertda murakkab asarlarni o‘rganib yuqori natijalarga erishish.

Talabalarni Davlat attestatsiyasiga jiddiy ravishda tayyorgarlik ko‘rilishi maqsad qilib qo‘yiladi. Yakunlovchi IV kurs talabalarining Davlat attestatsiyasiga ixtisoslik bo‘yicha ijro dasturini yuqori darajada tayyorlash jarayonini yanada jadallashtirish, chuqurlashtirish, ijro dasturining badiiy jihatlarini yoritish, mohirona ijro etish darajasiga erishish, o‘quv yillari davomida egallangan ijro imkoniyatlarini namoyish etish niyatida 5-6 marta sahnaviy chiqishlar va maxsus konsertlar uyushtirish rejalashtiriladi. Shu tadbirlar orqali bitiruvchi talabani Davlat attestatsiyasiga yuqori saviyadagi ijro mahoratlarini ko‘rsata oladigan holatga tayyorgarlik ko‘rishi lozim etiladi.

| | |
|---|---|
| | **Ixtisosiy talablar:**<br>Individual yo'nalishni ishlab chiqish.<br>Texnik mahorat.<br>Yakkaxon va ansambl amaliyoti.<br>Dasturiy talablar.<br>Polifonik asar.<br>O'zbek kompozitorlarining asari<br>**VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Ushbu fan bo'yicha amaliy (yakka) mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu - o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy (yakka) mashg'ulotlarda har bir mavzu yuzasidan cholg'uni chalib ko'rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta'sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko'rish yaxshi natija beradi.<br>Amaliy (yakka) mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o'z ijodiy (bki ijro) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham ko'yiladi.<br>Bakalavrlarning ijrochilik amaliyoti bevosita mutaxassislik fani bilan bog'liq. Talabalar butun o'qish jarayonida mutaxassislik sinfida olgan bilimlari va ijrochilik ko'nikmalarini, sinov-imtihonlarda, akademik konsertlarda, sinf konsertlarida, kompozitorlar ijodiga bag'ishlangan kechalar, bayram konsertlari, hamda Respublika va Xalqaro tanlov-festivallarda qatnashishlari, ularni ijrochilik mahoratlarini yanada oshirishda yordam beradi.. |
| 3. | **VII. Ta'lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan:<br>-ijrochilik repertuarini tanlashni ***bilishi kerak***<br>-simfonik va damli cholg'ular orkestrlarida ijro<br>-ijodiy jarayonga malakalarni tadbik kilish<br>-konsert va tanlovlarda chiqish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***<br>-orkestr mashg'ulotlariga qatnashish<br>- asarlarning mazmuni, shakli, fakturasi, cholg'ulashtirilganligi, uslubiy va janr xususiyatlarini ajrata bilish |

| | |
|---|---|
| | - jamoalar bilan ishlash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• yakka mashg'ulotlar<br>• interfaol keys-stadilar<br>• tinglash mashqlari<br>• tinglash va ijro etish<br>• masqlarni tinglash va notaga tushirish . |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. A.Ilyosov – Dutor chalish usullari. T.: "O'qituvchi" 1983.<br>2. J.K.Rasultoev – O'zbek dutor ijrochiligi. T. "O'qituvchi" 1997.<br>3. O.Qosimov – "Dutor taronalari" T.: "O'qituvchi" 1978.<br>4. I. Ikramov – "Doira" darsligi (1-2kurs) "Musiqa" 2002.<br>5. B.Raximjonov–"Dutorchilar ansambli" T.: "G'.G'ulom" 2002.<br>6. M.Ziyayeva– "Dutor", T.: "Musiqa" 2011.<br>7. O.Nazarov – "Xalq cholg'ularida ijrochilik", T.: "Musiqa" 2018.<br>8. Z.Turapov – "Dutor bas", T.: "Musiqa" 2018.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T, 2017<br>10. O.Nazarov – "Qashqar rubobi", "Nishon-Noshir" T.:2013.<br>11. O.Nazarov – "Rubob ijrochiligi", T.: "Musiqa" 2015.<br>12. B.Mirpayazov – "Soz darsligi", T.: "G'.G'ulom" 2006.<br>13. N.Sharipov – "Rubob - prima", T.: "G'.G'ulom"2003.<br>14. A.Petrosyans – "Cholg'ushunoslik" III-nashr T.: 1990.<br>15. A.Umarov – "Tanbur taronalari", T.: "G'.G'ulom"2004.<br>16. O.Qosimov – "Dutor navolari" T.: "G'.G'ulom" 1983 |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari**<br>17.http:www.youtube.com<br>18.www.kultura.uz<br>19.http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami<br>20.http://millionsbooks.org<br>21.http://www.udemy.com<br>22.http://www.universarium.org<br>23.http://konservatoriya.uz |
| 7. | Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil 30 avgustdagi 1 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sullar:**<br>O'.Abdullaev - O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi dotsenti.<br>I.M.Ikramov - O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori.<br>U.A.Yunusov - O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi dotsenti. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>X.Nazarov - O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI "Kompozitorlik va aranjirovka" kafedrasi dotsenti.<br>B.Mirpayazov - O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori. |